



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



Samarqand-2025

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2025



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ

ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:	Bosh muharrir o‘rinbosari:
Juliboy ELTAZAROV <i>f.f.d., professor (O‘zbekiston)</i>	Roxila RUZMANOVA <i>f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)</i>
TAHRIRIYAT KENGASHI:	
Rustam XALMURADOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston); Hakim XUSHVAQTOV – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Akmal AHATOV – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston); Muslihiddin MUHIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Ibodulla MIRZAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Shuhrat SIROJIDDINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Suyun KARIMOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Murodqosim ABDIYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Azamat PARDAYEV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Musa YULDASHEV – f.f.n., professor (O‘zbekiston); Dilfuza DJURAKULOVA – t.f.n., professor (O‘zbekiston); Aftondil ERKINOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Qosimjon SODIQOV – f.f.d., professor (O‘zbekiston);	Muhabbat QURBONOVA – f.f.d., professor (O‘zbekiston); Ali AKAR – f.f.d., professor (Turkiya); Abduselam ARVAS – f.f.d., professor (Turkiya); Funda TOPRAK – f.f.d., professor (Turkiya); Musa Shamil YUKSEL – f.f.d., professor (Turkiya); Temur KOJAO‘G‘LI – f.f.d., professor (AQSH); Hayrunnisa ALAN – f.f.d., professor (Turkiya); Varis CHAKAN – f.f.d., professor (Turkiya); Almaz ULVI – f.f.d., professor (Ozarbayjon); Emrah YILMAZ – Phd, dotsent (Turkiya); Foziljon SHUKUROV – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dilshod XURSANOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Shahnoza XUSHMURODOVA – DSc, professor (O‘zbekiston); Dinara ISLAMOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza JUMANIYAZOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Istoda RASULOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Dilorom MUMINOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Zarifa XUSANOVA – Phd, dotsent (O‘zbekiston); Feruza MANUKYAN – Phd (O‘zbekiston); Mas’ul muharrir: PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV (O‘zbekiston); Texnik xodim: Raxmatulla SHOKIROV (O‘zbekiston).



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Главный редактор:

Жулибой ЭЛТАЗАРОВ

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Рохила РУЗМАНОВА

к.ф.н., доцент (Узбекистан)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Рустам ХАЛМУРАДОВ – д.т.н., профессор,
ректор Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Хаким ХУШВАКТОВ – д.ф.-м.н., профессор,
проректор по научной работе и инновациям
Самаркандского государственного
университета имени Ш.Рашидова
(Узбекистан);

Акмал АХАТОВ – д.т.н., профессор,
проректор по международному
сотрудничеству Самаркандского
государственного университета имени
Ш.Рашидова (Узбекистан);

Муслихиддин МУХИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Ибодулла МИРЗАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Шухрат СИРОЖИДДИНОВ – д.ф.н.,
профессор (Узбекистан);

Суюн КАРИМОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муродкасым АБДИЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Азамат ПАРДАЕВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Муса ЮЛДАШЕВ – к.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА – к.и.н., доцент
(Узбекистан);

Афтондил ЭРКИНОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Касимжон СОДИКОВ – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Мухаббат КУРБАНОВА – д.ф.н., профессор
(Узбекистан);

Али АКАР – д.ф.н., профессор (Турция);

Абдуселам АРВАС – д.ф.н., профессор (Турция);

Фунда ТОПРАК – д.ф.н., профессор (Турция);

Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ – д.ф.н., профессор
(Турция);

Темур КОДЖАОГЛУ – д.ф.н., профессор
(США);

Хайрунниса АЛАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Варис ЧАКАН – д.ф.н., профессор (Турция);

Алмаз УЛЬВИ – д.ф.н., профессор
(Азербайджан).

Эмрах ЙИЛМАЗ – PhD, доцент (Турция);

Фозилжон ШУКУРОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Дилшод ХУРСАНОВ – PhD, доцент
(Узбекистан);

Шахноза ХУШМУРОДОВА – DSc, профессор
(Узбекистан);

Динара ИСЛАМОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Истода РАСУЛОВА – PhD, доцент (Узбекистан);

Дилором МУМИНОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Зарифа ХУСАНОВА – PhD, доцент
(Узбекистан);

Феруза МАНУКЯН – Phd (Узбекистан);

Ответственный редактор: PhD, доцент **Зокир
БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ**
(Узбекистан)



“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)

Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)

Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:

Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)

Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)

EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Akmal AKHATOV – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV (Uzbekistan)

Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARIMOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAEV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDASHEV (Uzbekistan);

Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKINOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV (Uzbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Uzbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Turkey);

Prof. Dr. Abdusalam ARVAS (Turkey);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Turkey);

Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL (Turkey);

Prof. Dr. Temur KOJA OGLU (USA);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Turkey);

Prof. Dr. Varis CHAKAN (Turkey);

Prof. Dr. Almaz ULVI (Azerbaijan);

Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ (Turkey);

Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Dilorom MUMINOVA (Uzbekistan);

Ass. Prof. PhD. Zarifa HUSANOVA (Uzbekistan);

PhD. Feruza MANUKYAN (Uzbekistan);

Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)

Technical staff: **Rakhmatulla SHOKIROV** (Uzbekistan)

Prof. Dr. Rustam HALMURADOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);

Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Akmal AHATOV – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);

Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Suyun KARİMOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Murodkasım ABDİYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Azamat PARDAYEV (Özbekistan);

Prof. Dr. Musa YULDAŞEV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA (Özbekistan);

Prof. Dr. Ali AKAR (Türkiye);

Prof. Dr. Abdusalem ARVAS (Türkiye);

Prof. Dr. Funda TOPRAK (Türkiye);

Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL (Türkiye);

Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU (ABD);

Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN (Türkiye);

Prof. Dr. Varis ÇAKAN (Türkiye);

Prof. Dr. Almaz ÜLVİ (Azerbaycan);

Doç. Dr. Emrah YILMAZ (Türkiye);

Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV (Özbekistan);

Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Istoda RASULOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Dilorom MUMİNOVA (Özbekistan);

Doç. Dr. Zarifa HUSANOVA (Özbekistan);

Dr. Feruza MANUKYAN (Özbekistan);

Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)

Teknik Personel: **Rahmatullah ŞOKİROV** (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

TURKIY XALQLARNING QADIMIY TARIXI

YULDASHEV Muso, YULDASHEVA Dilshoda

TURKIYLAR UZOQ O‘TMISH SIVILIZATSIYASINING SHOHIDI (SHUMER, ETRUSK, SHIMOLIY AMERIKA HINDU VA TURKIY TILLARI QIYOSIDA).....7

SAYFULLAEV Baxtiyor, ERGASHEV Odil, UNGALOV Lazizbek

QO‘SHRABOT TUMANINING QADIMGI TOSH (PALEOLIT) DAVRI YODGORLIKLARI15

TURK DUNYOSI TADQIQOTLARI

Gulnoz SATTOROVA

RIZO NURNING ADABIYOTSHUNOSLIKKA DOIR TADQIQOTLARI.....23

Emrah YILMAZ

DİLİN İÇ YÜZÜ VE KULLANIM ALANLARI29

G‘AFFOROV Alisher

BADIIY ASAR NOMI SIFATIDA QO‘LLANAYOTGAN BIRIKMASHAKLLARNING AYRIM FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....41

ODINAYEV Chingiz

TURK XOQONLIGI DAVRIDA SUG‘D VOHA HUKMDORLIGINING UNVONLAR TIZIMI47

Muhammadixon BUZRUKOV

SA‘DUDDIN MAS‘UD TAFTAZONIYNING SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETIDA SAQLANAYOTGAN RIYOZIYOT ILMIGA OID QO‘LYOZMA ASARI XUSUSIDA.....54

ABBOSOV Habibullo

SOHIBQIRON AMIR TEMUR MA‘NAVIY DUNYOSI ALISHER NAVOIY TALQINIDA60

SAFAYEV Mansur

TURKISTON GILAM SAN‘ATI: KOLLEKSIONERLIK VA KO‘RGAZMALAR FAOLIYATI KONTEKSTIDA.....67

ДОСПАНОВ Октябрь

ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ И КУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННОГО РЫБОВОДСТВА У НАРОДОВ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ75

FURKATOVA Maxliyo

THE UZBEK ACCUSATIVE CASE IN ENGLISH: A CONTRASTIVE-TYPOLOGICAL STUDY.....83

MUXAMMADIYEV Nodir

QASHQADARYO VILOYATI O‘ZBEK SHEVALARIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLAR SEMANTIKASI90

Uzm. Esra Yarız

BEDRİYE NAİM MUTLU‘NUN “BİTMEYEN HİKÂYELER” VE “AİLE AĞACI” KİTAPLARI ÜZERİNE İNCELEMELER95

Zeynep GÜLER

SEVİNÇ ÇOKUM‘UN HİLAL GÖRÜNÜNCÜ ROMANINDA TÜRKÇÜ TAVIRI.....102

ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

SATTOROV Begzod

XITOY VA TURKIY ADABIYOTDA KONNOTATIV NOMINATSIYA: MAQOLLAR VA SHE‘RIYAT KONTEKSTIDA TADQIQOT108

Foziljon SHUKUROV

“JAVOBIYA” AN‘ANASINING MOVAROUNNAHR SHOIRLARI IJODIDAGI O‘RNI115

BAYIMBETOVA Mexriban

THE FORMATION SYSTEM OF IMITATIVE WORDS IN THE ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES.....120

РАДЖАБОВ Анвар

РЕЦЕПЦИЯ ТЮРКО-ПЕРСИДСКОЙ ПОЭЗИИ ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ РУССКИХ ПОЭТИЧЕСКИХ ПЕРЕВОДОВ128

AZIZ MUSHTARIY!

Ushbu sonning asosiy o'qi, tilning badiiy chuqurligi bilan tarixning qadimiy izlarini birlashtiruvchi o'ziga xos tadqiqotlardan tashkil topgan. She'riyatda til birliklarining takrori va konnotativ quvvati, Alisher Navoiyning ulug' hukmdor Amir Temurning ma'naviy dunyosiga doir sharhlari, Turk-fors she'riyatining ruscha tarjimalari ushbu yozuvning adabiyot kategoriyasidagi asosiy doirasini shakllantirgan. Shu bilan birga, Xitoy va turkiy adabiyotdagi konnotativ nominatsiya, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi taqlid so'zlarning yasaliş tizimi qiyosiy ravishda ko'rib chiqilgan. Tarix va arxeologik tadqiqotlar orqali turkiy xalqlarning qadimiy Shumer va Etrusk tillari bilan qurgan sivilizatsion aloqasiga diqqat jalb etilgan. Turk Xoqonligi davridagi Sug'd unvonlar tizimlari o'rganilgan va Qo'shrabat hududidagi Paleolit davriga oid arxeologik topilmalar vositasida madaniy merosimizning turli qatlamlari ko'z oldiga keltirilgan. Yakunda; Turkiston gilam san'atining kolleksiyonerlik kontekstidagi qadri, Samarqandda topilgan noyob matematika qo'lyozmasining muhtevosi, badiiy asarlar nomining funksional xususiyatlari, tilning ichki mohiyati va qo'llanish sohalari, Qashqadaryo shevalaridagi o'zlashma iboralarning semantikasi bilan to'ldirilgan ushbu boy to'plam, o'quvchilarga madaniy va ilmiy jihatdan turli xil istiqbollarni taqdim etmoqda.

TAHRIRIYAT

DEAR READER!

The central axis of this issue consists of original research that integrates the artistic depth of language with the ancient traces of history. The recurrence and connotative power of linguistic units in poetry, Alisher Navoi's commentaries on the spiritual world of the great ruler Amir Timur, and the reception of Turco-Persian poetry through Russian translations have formed the core framework for the literature category of this writing. Furthermore, connotative nomination in Chinese and Turkic literature, and the word-formation system of imitative words in the English and Karakalpak languages have been comparatively addressed. Through historical and archaeological studies, attention has been drawn to the civilizational connection established by the Turkic peoples with the ancient Sumerian and Etruscan languages. The titles of the Sogdian rulers during the Turkic Khaganate period have been examined, and various layers of our cultural heritage have been brought to light through Paleolithic archaeological findings in the Qushrabad region. Finally; this rich compilation, completed with the value of Turkestan carpet art in the context of connoisseurship, the content of a rare mathematics manuscript found in Samarkand, the functional characteristics of artistic work titles, the inner essence and areas of use of language, and the semantics of non-literal expressions in the Kashkadarya dialects, offers various perspectives to readers from a cultural and scientific standpoint.

EDITORIAL BOARD

SEVGİLİ OKUYUCU!

Bu sayının ana eksenini, dilin sanatsal derinligi ile tarihin kadim izlerini birleştiren özgün araştırmalardan oluşmaktadır. Şiirde dil birliklerinin tekrarı ve çağrışımsal gücü, Alî Şîr Nevâî'nin büyük hükümdar Emir Timur'un manevi dünyasına dair yorumları, Türk-Fars şiirinin Rusça çevirileri konuları yazının edebiyat kategorisindeki temel çerçevesini oluşturmuştur. Bununla birlikte Çin ve Türk edebiyatındaki konnotatif adlandırma, İngilizce ve Karakalpakça'daki yansıma sözcüklerin yapısı karşılaştırmalı olarak ele alınmıştır. Tarih ve arkeoloji çalışmaları üzerinden Türklerin kadim Sümer ve Etrusk dilleriyle kurduğu medeniyet bağlantısına dikkat çekilmiştir. Türk Kağanlığı dönemindeki Soğd unvan sistemleri incelenmiş ve Kuşrabad bölgesindeki Paleolitik döneme ait arkeolojik bulgular aracılığıyla kültürel mirasımızın farklı katmanları gözler önüne serilmiştir. Son olarak; Türkistan kilim sanatının koleksiyonerlik bağlamındaki değeri, Semerkant'ta bulunan nadir bir matematik el yazmasının muhtevası, bediî eserlerin işlevsel özellikleri, dilin iç yüzü ve kullanım alanları, Kaşkadarya ağızlarındaki dolaylı anlatımların semantiği ile tamamlanan bu zengin seçki, okuyuculara kültürel ve bilimsel açıdan farklı perspektifler sunmaktadır.

YAYIN KURULU

УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

Основу данного выпуска составляют оригинальные исследования, которые объединяют художественную глубину языка с древними страницами истории. В разделе поэзии рассматриваются повторяемость и коннотативная сила языковых единиц; представлены комментарии Алишера Навои, посвящённые духовному миру великого правителя Амира Темура; а также анализируются русские переводы тюрко-персидской поэзии, формирующие основное направление литературной категории этого номера. В сравнительном аспекте анализируются коннотативная номинация в китайской и тюркской литературе, а также система словообразования звукоподражательных слов в английском и каракалпакском языках. Посредством исторических и археологических исследований обращается внимание на цивилизационные связи тюркских народов с древними шумерским и этрусским языками. Изучены системы согдийских титулов периода Тюркского каганата, а археологические находки палеолитического периода, обнаруженные на территории Кушрабадского региона, позволяют реконструировать различные пласты нашего культурного наследия. В заключение, этот обширный сборник, дополненный исследованиями о ценности туркестанского коврового искусства в контексте коллекционирования, содержании уникальной математической рукописи, найденной в Самарканде, функциональных особенностей наименований художественных произведений, внутренней сущности и сферах употребления языка, а также семантике заимствованных выражений в кашкадарьинских говорах, предлагает читателям широкий спектр культурных и научных перспектив.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ

TURKISTON GILAM SAN’ATI: KOLLEKSIONERLIK VA KO’RGAZMALAR FAOLIYATI KONTEKSTIDA

SAFAYEV Mansur Maxmudovich,

O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
kichik ilmiy xodimi (Toshkent, O‘zbekiston)

 **E-mail:** safayev.m@history-museum.uz

 **ORCID:** 0009-0003-5839-8226

 **DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17499816>

Annotatsiya: Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasiga oid gilam kolleksiyalarining shakllanishi yoritiladi. Unda ularning mahalliy, butunrossiya va xalqaro ko‘rgazmalarda namoyishi arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda gilamlarning dastlab turli harbiy yurishlar va ilmiy ekspeditsiyalar jarayonida yig‘ilib, shaxsiy kolleksiyalar, yirik muzeylar va ilmiy muassasalar fondlariga o‘tishi ko‘rsatib beriladi. XIX asr oxirida antikvar bozorlarning shakllanishi shaxsiy kolleksionerlik faoliyatini kengaytirgani va ilmiy hamda badiiy qiziqishlarni kuchaytirgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Rus “orientalizmi” doirasida gilam san’atiga qiziqish kuchaygani esa A. A. Bogolyubovning, N. F. Burdukov va A. E. Felkerzamning tadqiqotlari misolida yoritiladi. Bu jarayon kolleksiyalarning ixtisoslashuvi va ilmiy qiziqishlarning ortib borishi bilan izohlanadi. Buxoro amirligidagi gilamlar saqlanadigan maxsus “qolinxona” saroy kolleksiyasining shakllanishida muhim rol o‘ynagani va gilamlarni yig‘ish hamda saqlash jarayonini markazlashtirgani ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari gilam kolleksiyalarining shakllanish jarayoni tarixiy voqeliklarni ochishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu jarayon ularni madaniy meros sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *Gilam san’ati, kolleksiya, orientalizm, qolinxona, farroshboshi, ko‘rgazma.*

ТУРКЕСТАНСКОЕ КОВРОВОЕ ИСКУССТВО В КОНТЕКСТЕ КОЛЛЕКЦИОНИРОВАНИЯ И ВЫСТАВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: В статье освещается формирование ковровых коллекций, относящихся к Туркестану второй половины XIX – начала XX века. Их демонстрация на местных, всероссийских и международных выставках анализируется на основе архивных материалов и научной литературы. Выявлено, что ковры первоначально собирались в ходе различных военных походов и научных экспедиций, а затем поступали в частные коллекции, крупные музеи и научные учреждения. Научно обосновано, что возникновение антикварных рынков в конце XIX века расширило деятельность частных коллекционеров и усилило как научный, так и художественный интерес. Усиление внимания к ковровому искусству в рамках русского «ориентализма» раскрывается на примере исследований А. А. Боголюбова, Н. Ф. Бурдукова и А. Э. Фелькерзама. Этот процесс объясняется специализацией коллекций и ростом научного интереса. В Бухарском эмирате особое место «калинхона», где хранились ковры, занимало важное место в формировании дворцовой коллекции и централизовало процесс сбора и хранения ковров. Результаты исследования показывают, что процесс формирования ковровых коллекций имеет первостепенное научное значение для раскрытия исторической действительности. Кроме того этот процесс позволяет оценивать их как культурное наследие.

Ключевые слова: *Ковровое искусство, коллекция, ориентализм, колинхона, фаррошбоши, выставка.*

CARPET ART OF TURKESTAN: IN THE CONTEXT OF COLLECTING AND EXHIBITION PRACTICES

Abstract: The article examines the formation of carpet collections related to Turkestan in the second half of the 19th and the early 20th century. It analyzes their presentations at local, all-Russian, and international exhibitions using archival materials and scholarly literature. The study first demonstrates how carpets were collected during various military campaigns and scientific expeditions and subsequently transferred into private collections, major museums, and academic institutions. It is scientifically substantiated that the emergence of antiquarian markets at the end of the 19th century expanded private collecting activities and intensified both scholarly and artistic interests. The growing fascination with carpet art within the framework of Russian “orientalism” is illustrated through the works of A. A. Bogolyubov, N. F. Burdukov, and A. E. Felkerzam. This process is explained by the specialization of collections and the increasing scholarly interest. In the Emirate of Bukhara, the special “qalinkhana,” where carpets were stored, played an important role in the formation of the palace collection, centralizing the collection and preservation of carpets. The research results demonstrate that the process of forming carpet collections is of significant scholarly importance for uncovering historical realities. Moreover, this process allows carpets to be assessed as cultural heritage.

Key words: *Carpet art, collection, Orientalism, qalinkhana, farroshboshi, exhibition.*

Kirish. Gilamdo‘zlik san’ati masalalari tarix va san’atshunoslik fanlarida doimo dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Bu an’ana bugungi kunda ham ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Turkiston (O‘rta Osiyo) xalqlarining madaniyatida gilamdo‘zlik qadimiy davrlardan boshlab kundalik turmushning ajralmas unsuri sifatida shakllangan. Ushbu san’at turi nafaqat amaliy ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lgan, balki xalqning estetik qarashlari, dunyoqarashi va madaniy tafakkurining ifodasi sifatida rivoj topgan.

Mintaqaning yarim cho‘l iqlimi, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvachilikka asoslangan xo‘jalik tizimi, shuningdek, tabiiy xomashyolar — jun va o‘simlik bo‘yoqlarining mavjudligi barqaror gilamdo‘zlik an‘analarining shakllanishiga zamin yaratgan. Bu omillar nafaqat texnologik jihatdan gilam ishlab chiqarish imkonini ta‘minlagan, balki turkiy xalqlarning etnik o‘ziga xosligini aks ettiruvchi noyob badiiy uslublarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Prof. Fatma Nalan Türkmen o‘z tadqiqotlarida ushbu san’at turkiy xalqlar orasida qadimdan “ota san’ati” sifatida e’tirof etilganini, uning ildizlari Oltoy va Turkiston mintaqalariga borib taqalishini ta’kidlaydi. Ushbu an’ana ko‘p bosqichli tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan holda, Turkiston hududlaridan boshlab, Anadolu orqali hozirgi Turkiya hududlariga qadar yetib borgan (F. N. Türkmen, 2024: 13).

Mazkur tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda gilam kolleksiyalarining shakllanish jarayoni tarixiy kontekstda tahlil etiladi. Unda kolleksiyalarning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar, ularni shakllantirgan shaxslarning faoliyati hamda gilamlarning ko‘rgazmalardagi namoyishi masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqot davri yuzasidan adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, V. G. Moshkova (Мощкова, 1970) tadqiqotlarida XX asr boshlarida gilamlarning o‘rganilishi

bo‘limida qisman kolleksionerlik masalasiga ham to‘xtalgan. Moshkova o‘z asarida O‘rta Osiyo gilamlarini “xalq amaliy san’atining betakror namunasi, boy moddiy madaniyatni o‘rganish uchun bebaho manba” sifatida baholab, ularning ko‘p asrlik tajriba va avlodlar mehnati mahsuli ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayniqsa chorvador jamoalarda gilamdo‘zlik san’ati deyarli yagona badiiy hunarmandchilik turi bo‘lib, jamoaning estetik ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan (Мoшкoвa, 1970: 7). Shu bois, O‘rta Osiyo xalqlari madaniy merosini chuqur o‘rganishda gilamdo‘zlik an‘analarining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega.

Turkistonda, shuningdek, Butunrossiya va xalqaro miqyosda tashkil etilgan ko‘rgazmalarda Turkiston madaniyatiga xos ashyolar, xususan gilamlarning namoyish etilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni o‘rganishda G. N. Chabrovning maqolalari (Г.Н.Чaбpов, 1956; Г.Н.Чaбpов, 1958) tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, uning O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan tadqiqot qo‘lyozmalari ham alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib, ular Turkistonning madaniy merosiga oid turli jihatlar, xususan muzeylar tarixi (1) va xususiy kolleksiyalarning shakllanish jarayonini yoritishga bag‘ishlangan (2). Ushbu yo‘nalishda olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar orasida S. Gorsheninaning ishlari alohida ahamiyatga ega (S. Gorshenina, 2004). U ham Chabrov singari kolleksionerlik faoliyati va ko‘rgazmalar faoliyatini tahlil qilgan.

Tadqiq va natijalar. Etnograf S. M. Dudinning ta’kidlashicha, “O‘rta Osiyoning qadimiy gilamlari va gilamchalarini” to‘plash jarayoni XX asr boshidan boshlangan (Дyдин, 1928: 72). Biroq, bu holat faqat “qadimiy gilam”larni to‘plash amaliyotiga taalluqlidir, chunki mavjud tarixiy dalillar bu nuqtai nazarni to‘liq tasdiqlamaydi. Xususan, S. Gorshenina o‘z tadqiqotlarida O‘rta Osiyodagi gilam kolleksiyalarining dastlabki shakllanishi qurollar kolleksiyalari singari harbiy bosib olish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqligi haqidagi fikrni ilgari suradi. (S. Gorshenina, 2004: 92).

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi Turkistonni bosqichma-bosqich o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. Bu jarayon faqat harbiy va ma’muriy nazoratni o‘rnatish bilangina cheklanmay, balki mintaqaning moddiy va madaniy merosini egallash siyosati bilan ham kechdi. Harbiy yurishlar va ularni kuzatgan ilmiy ekspeditsiyalar davomida ko‘plab etnografik materiallar, xususan, gilamdo‘zlik mahsulotlari yig‘ila boshlandi.

Mazkur buyumlar Rossiyalik harbiylar va amaldorlar tomonidan shaxsiy kolleksiyalarni shakllantirish, shuningdek, imperiya markazidagi muzey va ilmiy muassasalar fondlarini boyitish maqsadida to‘plangan.

Dastlab, xizmat vazifasi bilan o‘lka hududlariga yuborilgan harbiy xizmatchilar va ma’muriy shaxslar tomonidan gilamlar turli manbalardan – sovg‘a, xarid, harbiy o‘lja shaklida – to‘plana boshlagan. Bu kolleksiyalar, albatta, ilmiy mezonlarga asoslanmagan bo‘lsa-da, mahalliy amaliy san’atga bo‘lgan dastlabki qiziqish ifodasi sifatida ahamiyatlidir. Masalan, bu holatni Samarqand garnizoni boshlig‘i bo‘lgan rus mayorining uyini ko‘z bilan ko‘rgan guvohning tasviri yaqqol namoyon etadi: “Birinch xonada ham, qolgan xonalarda ham — har yerda gilam, gilam va yana gilam. Ayniqsa, mehmonxona e‘tiborga loyiq: baland va keng xona boshdan-oyoq gilamlar bilan qoplangan. Devorlar, tokchalar, kursilar, buklama o‘rindiqlar, deraza tokchalari va pol — hamma joyni gilamlar egallagan. Bundan tashqari turli amaliy san’at namunalari bilan bezatilgan” (1: 18 varaq). Bu esa mahalliy gilamlarning ichki muhitga estetik va ijtimoiy bezak sifatida kiritilganini ko‘rsatadi, ya’ni bu holda xonani shartli ravishda *xususiy muzey* deb atash mumkin.

Xuddi shunday holat Kaspiyorti viloyatida ham kuzatiladi. Marv uyezdining boshlig‘i bo‘lgan polkovnik Maksud Alixanov-Avarskiy chodirida jamlangan “fors matolari va turkman

gilamlari” harbiy yurishlar davomida to‘plangan. Bu kolleksiyalar o‘z davrining did, mavqe va sharqona hashamni ifodalovchi bezak vositasi sifatida shakllangan (2: 13 varaqni orqa tomoni).

Taniqli arxeologlar S. P. Tolstov va V. A. Shishkin O‘rta Osiyodagi ilk kolleksiyachilik davri xususiyatlariga qiziqarli ta’rif berishgan: “Bu, asosan, **“qadimiy buyumlar”**ni **“nodir narsalar”** sifatida ko‘rish nuqtai nazaridan eng qiziqarli bo‘lgan birlamchi kolleksiyachilik edi, ularga egalik qilish esa o‘z egalarga o‘ziga xoslik baxsh etardi” (1: 80). Bu holatni, ayniqsa, o‘sha davrdagi ziyolilar va amaldorlar orasida tarixiy yoki ekzotik buyumlarni ko‘z-ko‘z qilish, maqtanish vositasi sifatida qabul qilingan kolleksionerlik shakli deb baholash mumkin.

XIX asr oxiriga kelib, Turkiston o‘lkasidagi yirik shaharlarda antikvar bozorlar paydo bo‘lishi (2: 13 varaqni o.t.) gilamning “qadimiy” namunalarini ham to‘planishiga zamin yaratgan bo‘lishi mumkin. Gilamlarning xorijiy mamlakatlarga olib chiqilishi esa temir yo‘l qurilishi ortidan mintaqaga kelgan xorijlik sayyohlar faolligi bilan bog‘liq bo‘lgan.

Mazkur davrdan Yevropaning ilmiy va san’at doiralarida Sharq madaniyatiga, xususan, gilamchilik san’atiga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bordi. Felkerzamning ta’kidlashicha, 1890-yilda Venada tashkil etilgan Sharq gilamlariga bag‘ishlangan yirik ko‘rgazma bu jarayonning muhim ramziy voqealaridan biri bo‘lib, aynan shu tadbir Yevropada gilam san’atini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning keskin kuchayishiga turtki bo‘lgan hamda bir qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelgan (Фелькерзам, 1915: 2). Bu hodisa, o‘z navbatida, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi madaniy siyosatida gilam san’atiga nisbatan shakllangan qiziqish jarayonlariga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa, shu davrdan boshlab shaxsiy kolleksiyalarda ma’lum bir ixtisoslashuvlar kuzatila boshlandi, ya’ni gilam to‘plovchilardan iborat alohida qatlam shakllana boshladi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda ham XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus “orientalizmi” (sharqshunosligi) doirasida ushbu san’at namunalariga nisbatan ilmiy qiziqish ortib borganligi ta’kidlanadi (Цаева, 2019:137). Bu esa gilamlarni nafaqat to‘plash, balki ularning yaratilish uslubi, madaniy mazmuni va tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ushbu toifaga mansub shaxslar orasida Kaspiyorti viloyatida uzoq yillar xizmat qilgan general A. A. Bogolyubov alohida ajralib turadi. Bogolyubov o‘zining gilam kolleksiyasini 1899-yildan boshlab shakllantira boshlagan bo‘lib, ayniqsa qadimiy gilam namunalarini to‘plashga alohida e’tibor qaratgan va bu faoliyatini 1901-yilda yakunlagan. Mazkur davr davomida u 139 dona gilamdan iborat kolleksiya bilan Turkistonni tark etgan. Ushbu kolleksiyadan 40 dona eng sara gilam Imperator Aleksandr III nomidagi muzeyga hadya qilingan. 1908-1909-yillarda esa u tomonidan to‘plangan gilamlarning ayrimlari davlat mablag‘i hisobidan nashr etilgan ikki jildlik “O‘rta Osiyo gilam mahsulotlari” albomida chop etilgan (Боголюбов, 1908-1909). Moshkovaning fikricha, Bogolyubovning kolleksiyasi hamda u tomonidan nashr ettirilgan albom O‘rta Osiyo gilamlarining G‘arbiy Yevropada ommalashishida katta rol o‘ynadi (Мощкова, 1970: 13-14). Bogolyubov albomiga ilova qilingan “O‘rta Osiyoning etnografik va gilamchilik xaritasi” F. Mixaylov bilan hamkorlikda tuzilgan. Ba’zi tadqiqotlarda F. Mixaylov hamda G. Arandarenko nomlari gilam kolleksionerligi bilan shug‘ullangan shaxslar qatorida tilga olinadi (Мощкова, 1970: 13).

Arxiv manbalarida Kaspiyorti viloyatida gilam to‘plash bilan shug‘ullangan yana besh nafar shaxs mavjud bo‘lganligi qayd etilgan, biroq ular haqidagi aniq ma’lumotlar, jumladan, ism-shariflari keltirilmagan (2: 13 varaqni o.t.).

Xususiyl gilam kolleksionerlari orasida N. F. Burdukov alohida e’tiborga loyiqlidir. Sharq gilamchiligini yaxshi bilgan va unga katta qiziqish bilan yondashgan Burdukov bir necha bor

Turkiston, Eron va Afgʻonistonga safar qilgan. Bu sayohatlar davomida u gilam ishlab chiqarish holatini oʻrganishga, uni saqlab qolish hamda Kaspiyorti viloyatida aholisi orasida rivojlantirish yoʻllarini aniqlashga intilgan. Safarlar chogʻida toʻplangan kolleksiya son jihatidan ham, texnik va badiiy ishlanish darajasi jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Burdukovning hukumatga taqdim etgan hisobotlari va koʻrgazmalar haqidagi maqolalari keyinchalik soha mutaxassisi tomonidan chuqur bilim va tahlilga asoslangan muhim manba sifatida eʼtirof etilgan (Мошкова, 1970: 14).

Turkiston gilamlariga oid muhim kolleksionerlardan yana biri baron Felkerzam boʻlib, u ushbu yoʻnalishda ilmiy asoslangan tadqiqotlardan birini amalga oshirgan. Felkerzam muzey kolleksiyalari, zamonaviy adabiyotlar hamda S. M. Dudinga tegishli materiallarga tayangan holda “Oʻrta Osiyoning qadimiy gilamlari” nomli asarni yaratgan va unda mintaqa gilamlarining badiiy hamda texnik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan.

Samarqandlik advokat Bolotinning oʻlkaga xos gilamdoʻzlik sanʼatiga oid ajoyib namunalarni oʻz ichiga olgan toʻplam yigʻgani haqida maʼlumotlar mavjud (2: 14 varaq). Toshkent shahrida gilam kolleksionerlari sifatida harbiy muhandis I. T. Poslavskiy va A. A. Polovsevnig kolleksiyalari haqida maʼlumotlar qayd etilgan (2: 14 varaqni o.t.).

Shuningdek, Buxoro amirligi saroyida shakllangan gilam kolleksiyasi mintaqaning eng yirik va murakkab tashkil etilgan toʻplamlaridan biri sifatida ajralib turadi. Ushbu toʻplam qisqa muddatda shakllangan shaxsiy kolleksiya emas, balki sulola faoliyati davomida, turli davrlarda yigʻilgan va asosan marosim hamda xoʻjalik ehtiyojlariga xizmat qilgan. Kolleksiya tarkibida faqat Turkiston gilamlari emas, balki Eron, Kavkaz va hatto Yevropa sanoat mahsulotlari ham mavjud boʻlgan (1:142). Ark qarorgohini tuzilishi haqida boʻyicha qilingan tadqiqotlarga koʻra, ushbu kolleksiya uchun ajratilgan alohida xona mavjud boʻlib, u “Qolinxona” nomi bilan tilga olinadi (Андреев М. С., Чехович О. Д., 1972: 38.). Ushbu nom mahalliy leksikadagi “qolin” – yaʼni gilam atamasi bilan bogʻliqdir. “Qolinxona”da xizmat qilgan besh nafar xizmatchi “farrosh” deb atalgan, ularning boshligʻi esa “farroshboshi” boʻlgan. Ularning vazifalari orasida gilamlarni tozalash, yozish, yigʻish va boshqa saroy boʻlinmalariga yetkazish kabi masalalar boʻlgan. May oylarida gilamlar kechalari yerga yoyilib, ertalab supurib omborga qaytarilgan. Bunga quyosh nuri tushishi kuya paydo qiladi degan ishonch sabab boʻlgan. Faqat XIX asr oxiridan boshlab buxoroliklar naftalin vositasi bilan tanishib, uni zararkunandalarga qarshi samarali vosita sifatida qoʻllay boshlaganlar (Андреев М. С., Чехович О. Д., 1972: 38-39.).

Bundan tashqari, Luninning maʼlumotlariga koʻra, mahalliy kolleksionerlar qatorida buxorolik Muhammad Vafo ham gilam sanʼatining durdonalarini toʻplagan (Лунин, 1958: 258.).

Gilam kolleksiyalarining shakllanishiga turtki bergan omillardan biri sifatida Turkistonda tashkil etilgan koʻrgazmalar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Dastlabki bosqichlarda bu koʻrgazmalarda mahalliy hunarmandlar va savdogarlarga ajratilgan pavilonlarda gilam va gilam mahsulotlari namoyish etilgan. Ushbu koʻrgazmalar reklama-maqсадga yoʻnaltirilgan boʻlib, mahsulotlarni tanitish va ichki bozorda ommalashtirishga xizmat qilgan. Mintaqadagi eng yirik koʻrgazmalardan biri — 1909-yilda Toshkentda oʻtkazilgan “Turkiston fani, sanoati, qishloq xoʻjaligining 25 yillik yubileyi koʻrgazmasi” hisoblanadi. Mazkur koʻrgazmaga bagʻishlab nashr etilgan albomdagi suratlarda Buxoro amirligi (**1-rasm**) va Kaspiyorti viloyatining (**2-rasm**) pavilonlari aks etgan boʻlib, ular tarkibida gilam va gilam mahsulotlari ham mavjudligini koʻrish mumkin.

XX asr boshlariga kelib, Turkistonda tor ixtisoslashuvdagi koʻrgazmalarni tashkil etish amaliyoti yoʻlga qoʻyila boshlandi. Ayniqsa, 1908-yildan boshlab gilam mahsulotlariga

bag'ishlangan maxsus ko'rgazmalar muntazam ravishda o'tkazila boshlagan bo'lib, ular mintaqada gilamchilikni ommalashtirish va mahalliy hunarmandlar faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan edi. Mazkur ko'rgazmalar ishlab chiqaruvchilarni aniqlash, sifatli mahsulotlarni tanlash va savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish vositasi sifatida baholangan. Ushbu ko'rgazmalar asosan gilamdo'zlik rivojlangan hududlarda o'tkazilgan. 1908-1910-yillar davomida Marv shahrida uch marotaba gilam ko'rgazmalari o'tkazilgan. 1911-1912-yillarda Ashxobodda, 1912-yilda esa Krasnovodskda (hozirgi Turkmanboshi sh.) ana shunday tadbirlar tashkil etilgan. 1913-yil dekabr oyida esa mazkur uch shaharda — Ashxobod, Marv va Krasnovodskda (**3- va 4-rasmlar**) bir vaqtning o'zida gilam ko'rgazmalari ochilgan bo'lib, ular bir necha kun davom etgan (Чабров, 1956: 132-133.). 1914-yilda esa Kaspiyorti viloyatining gilamchilik mahsulotlariga bag'ishlangan ikki yirik xalqaro ko'rgazma Berlin va London shaharlarida bo'lib o'tgan (Чабров, 1958: 56).

Shuningdek, yuqorida tilga olingan kolleksionerlar o'z gilam to'plamlari bilan butunrossiya va xalqaro darajadagi yirik ko'rgazmalarda faol ishtirok etgan. Xususan, 1900-yil Parijda bo'lib o'tgan Butunjahon ko'rgazmasida G. A. Arendarenko hamda Buxoro amirining gilam namunalari taqdim etilgan. 1902-yilda Sankt-Peterburgda o'tkazilgan Butunrossiya hunarmandchilik-sanoat anjumanida A. A. Bogolyubov, A. A. Felkerzam va Buxoro amirining gilam kolleksiyalari ko'rgazma ekspozitsiyasidan o'rin olgan. 1904-yilda esa baron Shtiglits nomidagi amaliy san'at muzeyi qoshida tashkil etilgan ko'rgazmada N. F. Burdukov, A. A. Felkerzam va Buxoro amirining gilamlari namoyish qilingan. Bundan tashqari, 1906-yil Milandagi, 1907-yil Bordodagi xalqaro tadbirlarda, shuningdek, 1907-yilda Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan Butunrossiya hunarmandchilik ko'rgazmasida Buxoro amirining to'plamlarida gilam mahsulotlari ham alohida eksponatlar sifatida ko'rsatilgan. (S. Gorshenina, 2004: 128-130.).

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri — XX asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyodagi gilamdo'zlik san'ati faqatgina utilitar (amaliy) soha bo'lib qolmay, balki muhim madaniy meros yo'nalishiga aylanganini alohida ta'kidlash lozim. Gilam to'qish san'atiga bo'lgan qiziqishning ortishi xususi kolleksiyalarning ko'payishiga, antikvar savdoning kengayishiga va ko'rgazmalarda mustaqil ekspozitsiyalarning tashkil etilishiga olib keldi. Bularning barchasi gilamlarni tizimli o'rganish, ilmiy tavsiflash va muzeylarda saqlash uchun asos yaratdi hamda ularning moddiy va badiiy qadriyat sifatidagi maqomini mustahkamladi.



1-rasm. 1909-yilda Toshkentda o'tkazilgan “Turkiston fani, sanoati, qishloq xo'jaligining 25 yillik yubileyi” ko'rgazmasi”. Buxoro amirligi bo'limi. *Manba: Альбом*


«Туркестанская 25-летия юбилейная сельскохозяйственная, промышленная и научная выставка».



2-rasm. 1909-yilda Toshkentda o‘tkazilgan “Turkiston fani, sanoati, qishloq xo‘jaligining 25 yillik yubileyi ko‘rgazmasi”. Kaspiyorti viloyati bo‘limi. *Manba: Альбом «Туркестанская 25-летия юбилейная сельскохозяйственная, промышленная и научная выставка».*



3-rasm. 1913-yil dekabr oyida Krasnovodskda o‘tkazilgan gilam ko‘rgazmasining ishtirokchisi. *Manba: Альбом «Туркестанские ковры. Выставка 1913 г.». Часть 2-ковровые изделия Кrasноводского уезда.*



4-rasm. 1913-yil dekabr oyida Krasnovodskda o‘tkazilgan gilam ko‘rgazmasining ishtirokchisi. *Manba: Альбом «Туркестанские ковры. Выставка 1913 г.». Часть 2-ковровые изделия Касановодского уезда.*

Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi R-2861 fond, 42 yig‘ma jild;
2. O‘zbekiston Milliy arxivi R-2861 fond, 100 yig‘ma jild;
3. Gorshenina S. The Private Collections of Russian Turkestan in the Second Half of the 19th and Early 20th Century. — Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 2004. — 205 p.;
4. TÜRKMEN F. N. Türk ve İslam Eserleri Müzesi ve Anadolu Türk Halıcılığının İzleri” / Aşkla Düğümlenen Sanat: Türk Halıları. Ed. Ekrem Aydar. — İstanbul, 2024. — S. 13–54.
5. Андреев М. С., Чехович О. Д. Арк (Кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. – Душанбе: Донеш, 1972. – С. 38.;
6. Боголюбов А.А. Ковровые изделия Средней Азии. СПб., 1908–1909. Вып. I–II.;
7. Дудин С.М. Ковровые изделия Средней Азии. / СБМАЭ. Т. VII. Л.: 1928. – С. 71-166.;
8. Лунин Б. В. Из истории русского востоковедения и археологии в Туркестане (Туркестанский кружок любителей археологии (1895–1917 гг.)). Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1958. – 320 с.;
9. Мошкова В. Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX века. Ташкент, 1970. – 276 с.;
10. Фелькерзам А. Е. Старинные ковры Средней Азии. «Старые Годы», 1915. – 80 с., 22 л. Ил.;
11. Царева Е. Г. Восточные ковры в русских коллекциях и интерьерах. Туркменские ковры во дворцах и музеях Санкт-Петербурга. XVIII–XX вв. / Русский ориентализм (наука, искусство, коллекции). СПб.: МАЭ РАН, 2019. – С. 137–170.;
12. Чабров. Г.Н. Выставочная работа в Туркестанском крае (1865-1916 гг.). Труды Музея истории Узбекской ССР. Вып. 3. – Ташкент, 1956. – С.118-137.;
13. Чабров Г.Н. Туркестан на всероссийских и всемирных выставках. 1867–1914 гг. / Труды Среднеаз. гос. университета. Новая серия. – 1958. – С. 41–60.

**BULLETIN OF THE
INTERNATIONAL JOURNAL
“TURKOLOGICAL
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

CONTACT ADDRESS:

Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,
Samarkand, Uzbekistan,
Research Institute of Turkology under
Samarkand State University named after
Sharof Rashidov

Phone:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article is presented on 8-10 pages;
- Article structure:
 1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
 2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
 3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
 4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
 5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
 6. The abstract should be no more than 120-150 words.
 7. At the bottom of the abstract, 7-10 keywords should be given that illuminate the content of the article.
 8. The article should be prepared in the following form:
 - a) Introduction;
 - b) Main part;
 - c) Results and Discussions;
 - d) Conclusions;
 - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
 - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
 - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as "Figure". Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
- Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages
- The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
- Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
- Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
- Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

“TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilmfanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqandda o’tkazilgan sammitida ko’zda tutilgan o’zaro aloqalarni jadallashtirish bo’yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O’zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.



JURNAL QUYIDAGI YO’NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoshlik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,
Samarqand, O‘zbekiston,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti huzuridagi
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

Telefon:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
- 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
- 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
- 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
- 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
- 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
- 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
- 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
- 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
 - a) Kirish (Introduction);
 - b) Asosiy qism (Main part);
 - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
 - d) Xulosalar (Conclusions);
 - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
 - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
 - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
- Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА
"ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ"**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,
15, город Самарканд, Узбекистан,
Научно-исследовательский
институт Тюркологии при
Самаркандском Государственном
Университете имени Шарофа
Рашидова

Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
 1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и снизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа A4.
 2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
 3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
 4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
 5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
 6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
 7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
 8. Статья должна быть подготовлена в виде:
 - a) Вступление (Introduction);
 - b) Основная часть (Main part);
 - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
 - d) Выводы (Conclusions);
 - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
 - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
 - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
- Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

“TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant’ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğrenim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı’na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu’nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmi yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

İLETİŞİM ADRESİ:

Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf
Reşidov adına Semerkant Devlet
Üniversitesine bağlı Türkoloji
Araştırmaları Enstitüsü

Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

Telegram ID:

@turkologiya2025

E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
 1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütun olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
 2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
 3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
 4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
 5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
 6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
 7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
 8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
 - a) Giriş (Introduction);
 - b) Ana bölüm (Main part);
 - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
 - d) Sonuçlar (Conclusions);
 - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
 - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
 - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar "Resim" olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
 - Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmemelidir.
 - Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
 - Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
 - Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
 - Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
 - Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2025-yil 20-oktabrda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2025-yil 24-oktabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturası.

Offset qog‘ozı. Shartli bosma tabog‘ı –9.

Adadi 15 nusxa. Buyurtma №742

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229



9

772992

922004